



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OMMAVIY AXBOROT
VOSITALARINING FAOLIYATI**

ADCHTI

*Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti .*

Xitoy tili yo'nalishi

101-guruh talabasi

Arabboyeva Mohinur Shoyatbek qizi

Ilmiy maslahatchi: Zaynobidinova I. M

Tel: +998953462703

Annotatsiya: Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqlari qadimgi davrda ham yuqori madaniyatga ega bo'lib, astronomiya, geografiya, tarix va tilshunoslik sohasida ajoyib kashfiyotlar qilib, jahon madaniyatining rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Ular faqat tabiiy va aniq fanlar bilan shug'ullanib qolmay, filologiyaga ham katta e'tibor berganlar. Ulardan biri Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariydir.

Kalit so'zlar: Mahmud Qoshg'ariy, devon, Istanbul, leksikologiya, leksikografiya, shakldosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar.

Annotation: The peoples of the Central Asian countries possessed a high level of culture even in ancient times, making remarkable discoveries in astronomy, geography, history, and linguistics, and contributing significantly to the development of world civilization. They not only engaged in natural and exact sciences but also paid great attention to philology. One of them was Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Kashgari.



Keywords: Mahmud Qoshg‘ariy, Devon, Istanbul, lexicology, lexicography, homonyms, synonyms.

Аннотация: Народы стран Центральной Азии ещё в древние времена обладали высокой культурой, совершая выдающиеся открытия в области астрономии, географии, истории и языкознания и внося значительный вклад в развитие мировой цивилизации. Они занимались не только естественными и точными науками, но и уделяли большое внимание филологии. Одним из таких учёных был Махмуд ибн Хусайн ибн Мухаммад Кашгари.

Ключевые слова: Махмуд Кошгари, «Девон», Стамбул, лексикология, лексикография, омонимы, синонимы.

Tilshunoslik tarixida Mahmud Koshg‘ariy salmoqli o‘rin egallaydi. U tilshunoslikning juda ko‘p sohalari bo‘yicha qalam tebratdi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist-fonolog, leksikolog, leksikograf, lingvogeograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi.

S. Mutallibov ta’kidlaganidek, Mahmud Koshg‘ariy yaratgan “Devonu lug‘atit turk” asari faqat o‘sha davr uchun katta voqea bo‘lib qolmay, bugungi turkologiya fani uchun ham o‘z qimmatini saqlab kelmoqda. U haqiqiy ravishda turkologiya fanining asoschisi hisoblanadi.

M. Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakr shahrida topildi. Topilgan qo‘lyozmani ko‘chirgan kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy yozishicha, u bu nusxani Mahmud Qoshg‘ariyning o‘z dastxatidan olgan. “Devonu lug‘atit turk” 1915-1917-yillarda uch tomdan iborat qilib Istambulda nashr etiladi. Shu nashr asosida V. Brokkel’man bu asarni 1928-yilda nemischa tarjimada nashr etadi. 1939-yilda Anqarada Basim Atalay tarjimasida turk tilida bosiladi. Olim S. Mutallibov “Devon” tarjimasi ustida



samarali ishlab, 1960-1963-yillar davomida uch tomlik tarzida o‘zbek tilida nashr qildi.

M. Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari kirish va lug‘at qismidan iborat. Kirishda muallif “Devon”ni yaratish sabablari, o‘z ish uslubi, “Devon”ning qurilishi, turkcha so‘zlarning tuzilishida qo‘llanadigan harflar haqida, so‘zlarning tuzilishi haqida, kitobda aytilgan va aytilmagan narsalar haqida, turk qabilalari va tabaqalarining bayoni haqida, turk tilining xususiyatlari, tilda va lahjalarda bo‘lgan farqlar haqida fikr yuritadi.

Asarning lug‘at qismida 7500 so‘z sakkiz bo‘limda izohlanadi. O‘sha davrdagi taomilga ko‘ra, turkiy so‘zlarga arabcha izoh beriladi. Shuning uchun ham M. Qoshg‘ariy “Tushunilishi oson bo‘lsin uchun asarda arabcha istiloh qo‘lladim”- deydi (2: I, 45). M. Qoshg‘ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo‘lib qoldi.

Maxmud Qoshg‘ariy turkiy tilshunoslikning leksikologiya va leksikografiyasiga ham asos soldi. U leksikologiyaning obyekti bo‘lgan ma‘noni kuchaytirish, torayishini va kengayishi, zid ma‘noli so‘zlar (antonim), shakldosh so‘zlar (leksik omonimiya), ma‘nodosh so‘zlar (leksik sinonimiya), bir so‘zning zid ma‘noda qo‘llash kabi masalalar bo‘yicha ma‘lumot beradi. U leksik omonimlarni shakliy o‘xshash bo‘lgan bir necha so‘z sifatida e‘tirof etdi. Shuning uchun ham bunday so‘zlarni alohida maqola tarzida beradi va izohlaydi.

M. Qoshg‘ariyning turkiy tillar leksikasi, fonetikasi va morfologiyasini bir-biriga qiyoslab, ular orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatdi. Bu faktlarni izohlashga tarixiy aspektda yondashdi. M. Qoshg‘ariy til faktlari asosida qabilalarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rsatdi va o‘sha davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitlar asosida qabilalarning bir-birlari bilan birika boshlashi natijasida yuzaga kelgan xalq tilining ilk davri materiallaridan namunalar keltirdi.



O'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar, tatarlar va boshqa xalqlarning qadimgi qabilalarning va ularning qadimgi sodda tillaridagi so'zlarning qaysi xalq va qabila tiliga oid ekanligini izohladi.

Shu nuqtayi-nazardan lug'atdagi so'zlarni bir necha guruhga ajratish mumkin: Hamma turkiy tillarda qo'llaniladigan so'zlar: ish, esh, yo'l, bosh, boy kabilar. Bu so'zlar fonetik variantlari bilan farqlansa-da, bir xil shakl va ma'noda ishlatiladi. Bir xil shakl va ma'noda bir necha turkiy tillarda qo'llaniladigan turkiy so'zlar: bol (suvor va qipchoq tilida), keraklamoq-o'g'irlamoq, (yag'mo tilida), gejak-kokil (arg'u tilida), kabilar. Bu haqda M. Qoshg'ariy shunday yozadi: "Men turklar, turkmanlar, o'g'izlar, chigillar, yag'molar, qirqizlarning (qirg'izlarning) shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Ular har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim» (2: I, 44). Umuman, M. Qoshg'ariy XI asrdagi turkiy qabila tillarining tasnifi uchun 6 fonetik va 4 morfologik xususiyatni asos qilib olgan. Bularning barchasi M. Qoshg'ariyning turkiy tillarning asosiy xususiyatlarini, ular orasida o'xshashlik va farqlarini yaxshi tushuna olganligidan, uning chuqur va har tomonlama lisoniy bilimga ega ekanligidan dalolat beradi.

M. Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari faqat tilshunoslik asari bo'lib qolmasdan o'z davrining ensiklopediyasidir. Chunki unda turli xalqlarning tarixi, geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odati, tabiiy sharoiti, entografiyasi va adabiyoti haqida qimmatli materiallar bor. M. Qoshg'ariy tomonidan berilgan ma'lumotlar hozirgi turkiy tillarni o'rganishda qimmatli manba bo'lib qoladi.



Xulosa qilib aytganda, Devoni lug'atit turk" turkiy tildagi so'z yasalişini chuqur o'rganish imkonini beruvchi keng qamrovli asardir. Lug'at turkiy til haqidagi tushunchamizni shakllantirishga yordam berdi va uning so'z boyligini kengaytirishda muhim rol o'ynadi. Kitob turkiy til va tilshunoslikni o'rganishga qiziquvchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asari turkiy tilshunoslik uchun qimmatli manba bo'lib, turkiy tilni shakllantirgan so'z yasalişini, tuzilişini va ijtimoiy lingvistik omillar haqida tushuncha beradi. Uning hissasi boshqatilshunoslar va akademiklarga ta'sir ko'rsatdi va uning tadqiqoti turkiy tilshunoslik sohasidagi zamonaviy tadqiqotchilar uchun muhim ma'lumotnoma bo'lib qolmoqda. Asardagi dialektlar har qaysi jihatdan hozigi davr bilan solishtirganda hozirgacha yashab kelayotgan lahjalarimizda ishlatilayotgan dialektik birlik tamoyillariga mos va xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Nurmanov "O'zbek tilshunosligi tarixi"
2. B. O'rinboyev, A. Musayev "Umumiy tilshunoslik "
3. Rasulov Ravshanxo'ja "Umumiy tilshunoslik "
4. S. Usmonov "Umumiy tilshunoslik "